

- 9 Беркинов Б., Шакирова Г., Абдурахимова Ё. [www.biznes-daily.uz](http://www.biznes-daily.uz). 30.10.2018 | Сон: №10. 2018 йил.
- 10 Шодмонов Ш.Ш., Фафуров У.В. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик; Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.
- 11 Аҳмедов А. Фуқаролар йиғинлари ва оилавий бизнес истиқболи. // ЎЗА, Халқ сўзи газетаси, 03.08.2011. – <http://www.senat.uz/uz/news/2011/03-08-1.html>
- 12 Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – 2-е изд., испр. М.: ИНФРА-М., 1999, 479 с.
- 13 *Гузитдинова* Н. [Что такое семейный бизнес по-американски?](http://prodohod.blogspot.com/2010/04/blog-post.html) – <http://prodohod.blogspot.com/2010/04/blog-post.html>
- 14 **Юридические основы семейного бизнеса в России** // [http://www.bishelp.ru/svoe\\_delo/](http://www.bishelp.ru/svoe_delo/)
- 15 Семейный бизнес или что такое хорошо и что такое плохо // Помощь бизнесу. -<http://bishelp.ru/>

## INSONIY KAPITAL – KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIGINI OSHIRUVCHI OMIL SIFATIDA

### ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА

#### HUMAN CAPITAL AS A FACTOR IN INCREASING THE INNOVATIVE ACTIVITY OF SMALL BUSINESS

**Boboyeva Gulnora Ganjiyevna** –  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
1-bosqich tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Maqolada kichik biznesning innovatsion faoligini oshirishda inson kapitali omilining oʻrni tadqiq qilingan. Kichik biznes sub'yektlarining innovatsion faoliyatiga oid va ushbu sohada ish bilan band ishchi xodimlarning ma'lumot darajasi to'g'risidagi statistic ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Tayanch atamalar:** Innovatsiya, innovatsion faollik, inson kapitali, bilimlar iqtisodiyoti, kognitiv tarkib, kreativ tarkib, shaxsiy tarkib.

#### **Kirish.**

Mavjud moddiy boyliklar va iqtisodiy imkoniyatlar o'z-o'zidan kichik biznes taraqqiyotini ta'minlash omiliga aylanavermaydi. Buning uchun ularni moddiy kuchga aylantirishga qodir, fan-texnika yutuqlaridan to'la foydalana oladigan, ulardan foydalanish asosida innovatsiyalar yaratadigan va ularni jamiyatning barcha sohalariga kirita oladigan intellektual salohiyatli insonlar kerak.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z nutqlarida: "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga

tayangan davlat yutadi" [1] deb ta'kidlaganlar.

Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish uchun esa har bir inson, mehnat jamoasi, jamiyat yangi kompetensiyalarni, yangi kasbiy va ijtimoiy sifatlarni, inson salohiyati xususiyatlarini egallashi, insoniy rivojlanishning yuqoriroq pog'onasiga o'tishi lozim. Haqiqatdan ham, inson kapitalini rivojlantirmay turib, innovatsion taraqqiyotga erishish mumkin emas.

Innovatsiyalar korxonalarining bozorda yashab qolishida muhim rol o'ynaydi [2] va odatda yangi bilim va g'oyalarning tijoratlashuvi orqali ifodalanadi. Innovatsiyalar korxonalar unumdorligi va o'sishining zaruriy omilidir [3].

Jahon banki guruhi tomonidan O'zbekiston Respublikasida korxonalar va tashkilotlarning inno-

vatsion faolligini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot xulosalariga ko'ra, boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirganda O'zbekiston korxonalarining innovatsion faolligi nisbatan past, ushbu sohada hanuzgacha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yirik hamda davlat korxonalaridan ortda qolmoqda. Kichik biznesning innovatsion faolligini oshirishda esa rahbar, menejerlar hamda unda bevosita faoliyat yuritayotgan xodimlarning inson kapitaliga uzviy bog'liqdir. Inson kapitali ko'nikmalar, tajriba va ishlashga tayyorlik jihatidan korxonalar raqobat ustunligini ta'minlaydi [4]. Inson kapitali innovatsiyalarning ajralmas qismidir.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Tobora yuksalib borayotgan inson ehtiyojlarini qondirishning yangi yechimlarini topish va intellektual resurslardan foydalanish qobiliyati bilimga asoslangan iqtisodiyotda markaziy o'rinni egallamoqda. Inson bilimlari va imkoniyatlari doimo qiymat yaratishning markazida bo'lgan.

Tadbirkorlik sohasidagi bilimlar fenomenini tahlil qilishga urinishlar uning rivojlanishining barcha bosqichlarida kuzatilishi mumkin. F.U.Taylor o'zining «ilmiy menejment» maktabida ishchilarning ob'yektiv va ilmiy bilimlarga oid tajribasi va ko'nikmalarini shakllantirishga kirishdi.

S.Barnard boshqaruv jarayonlarida «xulq-atvor bilimlari» ning ahamiyatini o'rganib chiqdi. P.Drucker, «bilimlar ishchisi» atamasini kiritib, keyinchalik «bilimlar jamiyatida» (bilimlar jamiyati) asosiy iqtisodiy manba potensial, tabiiy resurslar yoki mehnat emas bilimdir, deb ta'kidladi. U yana shuni ta'kidladiki, «bilim asosiy iqtisodiy resurs va ustunlikka aylandi, va hatto raqobat kurashida ustunlikning yagona manbai» [5].

Uning ta'kidlashicha, XX asr boshqaruvidagi muhim vazifa, innovatsiyalar va qo'lda ishlov berish jarayonlarini doimiy ravishda sanoatlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, shuningdek bilimlar asosida mahsuldorlikni oshirish bo'lib hisoblanadi [6].

Marshall bilimga ustunlik berib, potensial bilimning katta qismini, tashkilot va bilim esa ishlab chiqarishning eng kuchli dvigatelidir, deb ta'kidlaydi.

*Inson kapitali* tushunchasini fanga 1979-yilda nobel mukofoti sovrindori Teodor Shults kiritgan. U birinchilardan bo'lib inson kapitali tushun-

chasiga ishlab chiqaruvchi omil sifatida qaragan. "Odamning bilim va malakalari kapitalning o'ziga xos shaklidir", deya ta'kidlagan.

T.Shultsning hisoblashicha, insonga investitsiya kiritishning asosiy natijalari odamlarda mehnat layoqatining ortishi, ularning jamiyatda samarali bunyodkorlik faoliyatini amalga oshirishi, salomat bo'lishi va hokazolarda o'z ifodasini topadi. U inson kapitali jamlanish va takror hosil qilinishga qodir deb hisoblagan.

V.A. Lavrentyev, A.V. Sharinalar korxonalar intellektual salohiyatini xodimlarning innovatsiyalarni yaratish jarayonida qo'llaniladigan nazariy bilimlari, amaliy tajribalari va individual qobiliyatlarining jamlanmasi sifatida izohlagan [7].

Iqtisodiy nuqtai nazardan, T.Stuartning fikriga ko'ra, intellektual salohiyat «... insonning bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari, uning harakatchanligi, yangi ma'lumotni qabul qilish, o'rganish, qayta tayyorlash, yangi sharoitlarga moslashish qobiliyati ...»[8] tushuniladi.

Ushbu keltirilgan iqtisodchi olimlarimizning inson kapitali tushunchasiga bergan ta'riflariga ko'ra, bizning fikrimizcha ham insondagi bilim, ko'nikma, motivlar zahirasi va uni yuzaga chiqara olish, samarali foydalana olish qobiliyatlari yig'indisini *insoniy kapital* sifatida e'tirof etish mumkin.

N.G. Buxarseva "Zamonaviy insonning intellektual salohiyati: tuzilishi va shakllanish yo'llari" nomli maqolasida xodimning intellektual salohiyati kognitiv tarkib, kreativ tarkib, shaxsiy tarkib tashkil topishini ta'kidlar o'tgan. Ular:[9]

*Kognitiv tarkib*– o'z ichiga nazariy bilimlar, amaliy tajriba, kasbiy kompetensiyalarni oladi. Malaka tavsiflari – umumiy va maxsus bilimlarning hajmi, chuqurligi va ko'p qirraliligi, ishchilarning ma'lum bir tarkibiy va murakkablikdagi ish qobiliyatini belgilaydigan mehnat ko'nikmalaridir.

*Kreativ tarkib*– innovatsiyalarni yaratish, murakkab masalalarni hal etishga oid qobiliyatlarni qamrab oladi;

*Shaxsiy tarkib*– o'z ichiga har bir shaxsning o'ziga xos: individual xususiyatlarni, psixofiziologik va kasbiy shaxsiy xususiyatlarni oladi. Xodimning psixofiziologik shaxsiy fazilatlar – xodimning sog'lig'i, ishlash qobiliyati, xotira, fikrlash qobiliyatlari kiradi. Kasbiy shaxsiy fazilatlar esa axloqiy, ishbilarmonligi va hissiy shaxsiy fazilatlarini o'z

ichiga oladi.

Inson kapitali tarkibiga kompaniya xodimlarining individual va jamoaviy bilimlari, kompetensiya – ma’lum bir sohadagi bilim va tajriba, ijodiy qobiliyat, texnologik va boshqaruv ko’nikmalari va boshqalar kiradi. Inson kapitali bu noaniq yechimlarni taklif qilish qobiliyati, u yangilanish va taraqqiyot manbai.

Intellectual salohiyatining asosiy maqsadi innovatsiyalarni (mahsulot, texnologiya, tizim yoki boshqaruv tuzilishi) yaratish va tarqatishdir.

Inson kapitalini o’rganishga o’zbekistonlik olimlardan Q.H.Abduraxmonov, Sh.R.Xolmo’minov, A. Vahobov, A. O’lmasov, B.Sh. Usmonov, R.A. Raxmanbayeva, Sh.G. Akramova, D.D. Rustamova, N.K. Sodiqov, A.B.Irmatova, S.U.Xusenov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag’ishlangan. Olimlarning ilmiy izlanishlarda intellectual salohiyatning mohiyati, uning tarkibiy tuzilishi, inson kapitali, intellektual kapital, uning mezon va

ko’rsatkichlari to’la ochib berilgan.


### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez usullaridan, empirik tahlil natijalaridan hamda tizimli yondashuv, tahlil uchun statistik usullardan foydalanilgan.

### **Tahlillar.**

Innovatsion iqtisodiyotni yaratish va shakllantirishda shubhasiz kichik korxonalar va mikrofirmalarning ahamiyati beqiyosdir.

Quyida keltirilgan diagrammada kichik biznes sub’yektlarining innovatsion faoliyat ko’rsatkichlari aks ettirilgan bo’lib, unda kichik biznesning innovatsion faollik darajasi o’z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami kichik biznes sub’yektlari soniga nisbati orqali hisoblangan.



**1-diagramma. Kichik biznes innovatsion faoliyatining asosiy ko’rsatkichlari, % larda.**

**Manba:** O’zbekiston davlat statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Statistik ma’lumotlarga ko’ra 2021 yilda o’z kuchi bilan innovatsion mahsulot, ishlar, xizmat-

lar ishlab chiqargan kichik biznes sub’yektlari soni viloyatlar kesimida tahlil qilinganda yetakchi uchlikdan Toshkent shahri (1137), Toshkent (545) va Navoiy viloyatlari (391) o’rin egallagan. Eng past ko’rsatkichlar esa Jizzax (710) hamda Xorazm (69) viloyatlari, Qoraqalpog’iston Respublikasida (43) kuzatilgan. Kichik biznes sub’yektlari innovatsion faoliyatining boshqa ko’plab ko’rsatkichlari bo’yicha ham Toshkent shahri va Toshkent viloyatlarining yuqori natijaga erishishlarining asosiy sa-

bablari bo’lib, avvalambor hududda kichik biznes sub’yektlari sonining ko’pligi, intellectual salohiyatni oshiruvchi oliy ta’lim muassalarining zich joylashganligi, malakali mutaxassis va kadrlarning markazga intilishi va albatta boshqa viloyatlarga nisbatan innovatsion faoliyat infrazilmasining yaxshiroq shakllanganligi deb baholashimiz mumkin. 1-diagramma ma’lumotlaridan 2016 yildan 2020 yilgacha kichik biznes sub’yektlarining innovatsion faolligi oshganini ko’rishimiz mumkin. Biroq 2021

yilda innovatsion faollik ko'rsatkichi 2020-yildagi nisbatan deyarli 2 barobarga pasayib, 0,84 % ni tashkil etgan. Innovatsion faollikning past darajasi kichik biznes sub'yektlarida faoliyat yurituvchi mehnat resurslari salohiyatidan to'laqonli foydalanilmayotganligidan darak beradi.

Kichik biznes sub'yektlarining ishlab chiqargan innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlar hajmining jami mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan tushgan tushumlardagi ulushi 2020-yilda 4,98 % ga yetgan bo'lsa, 2021 yilga 2,55 % tashkil etgan, ushbu ko'rsatkichning ham bir yil ichida deyarli 2 barobarga pasayishi kuzatilgan.

Pasayish dinamikasi kichik biznes sub'yektlari tomonidan texnologik, marketing, tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlarning jami mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumidagi ulushida ham kuzatilgan. 2016 yilda texnologik, marketing, tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar 211,4 mlrd so'nmi tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 1165,7 mlrd so'mga yetgan. Ushbu xarajatlarning jami mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan tushgan sof tushumidagi hisyasi esa deyarli o'zgarmagan.


Adabiyotlarda umumiy qabul qilingan inson kapitali ko'rsatkichlari mavjud emas. Shunga qara-

may ta'lim darajasi, ta'lim va tayyorlov yillari miqdori ko'p yillar samarali ko'rsatkichlar sifatida qaralgan [10]. Inson kapitalining boshqa ko'rsatkichlari o'z ichiga xodimning tarmoqdagi tajribasi va ta'limi [11], shuningdek, umumiy va o'ziga xos inson kapitalini (yosh, jins, ota – onasining kelib chiqishi, ta'limi bo'yicha o'lchanadigan) o'z ichiga oladi [12].

Mak Guirk va Jordanlarning tadqiqotlarida korxonada personalni tarkibida turli millatli va ta'lim darajali xodimlarning mavjudligi ushbu korxonalarining innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish ehtimolligiga ijobiy ta'sir o'tkazadi [13].

P.Xofxaynts, ta'lim darajasi ishchi kuchi malaka darajasini baholashning samarali vositasidir, yuqori ko'nikmalar oliy yoki unga tenglashtirilgan ma'lumotni, o'rta ko'nikmalar o'rta yoki unga tenglashtirilgan ta'limni tugatganligini ko'rsatadi, deya ta'kidlaydi [14]. Olim bandlik, daromad salohiyati va kelgusida ta'lim olish istiqbollari barcha hollarda yuqoriroq ko'nikmali xodimlarda past ko'nikmali xodimlarga nisbatan yuqori ekanligini aniqlagan.

Quyidagi diagrammada respublikamizda mavjud kichik biznes va mikrofirmalarda yollanib ishlovchi aholi sonining ma'lumot darajasi bo'yicha taqsimlanishi ifodalangan.



**2-diagramma. Kichik biznes va mikrofirmalarda yollanib ishlovchi aholi sonining ma'lumot darajasi -bo'yicha taqsimlanishi, % larda [15]**

Yuqorida keltirilgan diagramma ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, yil sayin korxonada faoliyat yurituvchi yollanma xodimlarning oliy ma'lumot darajasi oshib bormoqda. Jumladan, 2018-yilda jami yollanma xodimlar tarkibida oliy ma'lumotli xodimlar 20,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 22,9 % ga yetgan.

2021 yil oxiriga kelib kichik korxonada va

mikrofirmalarda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni 1388,1 ming kishi bo'lib, shundan oliy ma'lumotlilar 318 ming kishi, magistrlar 19,3 ming kishi, ilmiy darajaga ega xodimlar esa 0,7 ming kishini tashkil etgan.

Zero M. Karpenkoning "... oliy ma'lumotli kishining ish unumdorligi oliy ma'lumotsiz kishinikiga qaraganda 15 marta yuqori" [16] fikriga

tayangan holda, korxonalarining ishlab chiqarish quvvati, salohiyati yildan yilga oshmoqda, degan xulosaga kelamiz.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar inson kapitaliga investitsiyalardan olinadigan foyda texnikaga kiritilgan investitsiyalarga nisbatan uch baravar ortiqiligini ko'rsatgan. Shu bilan birga xodimlar ta'lim darajasining 10,0 %ga ortishi mehnat unumdorligini 8,6 % ga ko'paytirishi aniqlangan. Shuningdek, aksiyadorlik kapitalining shu miqdorga ko'payishi mehnat unumdorligini 3,0-4,0 % ga oshirgan [17].

Mamlakatimizda so'nggi 5 yillikda, ilmiy-innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, mamlakatning innovatsion salohiyatini shakllantirish hamda yanada takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm – fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6097-sonli Farmonida ham innovatsion faoliyat va uning asosiy drayveri bo'lmish inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha quyidagi maqsadli ko'rsatkichlari va indikatorlari belgilash olindi:

- 2025 yilga qadar ilm-fanga yo'naltiriladigan jami mablag'larning YaIMga nisbatan ulushini 6 barobarga, 2030 –yilgacha esa 10 barobarga oshirish;

- 2025 yilga qadar ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag'lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 % ga, 2030 yilgacha esa 30 foizga yetkazish;

- Innovatsion ishlanmalar va startup loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy yetakchi investitsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda 2021 yilda 2 ta, 2025 –yilda 10 ta venchur jamg'armalarini tashkil qilish;

- Ilmiy tadqiqot va ishlanmalar sohasidagi texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning umumiy hajmida tashkilotning o'z kuchi bilan bajarilgan texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning ulushi

amaldagi 7 foizdan 2025-yilda 25 % ga, 2030-yilga qadar esa 65 foizga yetkazish;

- Texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning umumiy hajmida mashina, asbob –uskuna va dasturiy vositalar sotib olish xarajatlarning ulushini amaldagi 54 foizdan, 2025 yilda 40 foizga, 2030 yilgacha esa 15 foizga tushirish va boshqalar.

Ushbusa'y-harakatlarning amalga oshirilishi natijasida inson kapitalini rivojlantirish orqali iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, kichik biznes sub'yektlarining innovatsiyalarga moyillik darajasi oshirish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

### ***Xulosa va takliflar.***

-Inson kapitali bu insonning bilim – ko'nikmalari jamlanmasi, u ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ish, xizmatlarga qo'shimcha qiymat qo'shadi, innovatsion faoliyatning barcha bosqichlarida bevosita ishtirok etadi, ya'ni innovatsiyalarning ajralmas qismidir;

- Kichik biznes sub'yektlarining innovatsion faoliyat ko'rsatkichlarida 2021 –yilda pasayish tendensiyasi kuzatilgan;

- Intellektual salohiyatga kiritilgan investitsiyalar eng yuqori qaytim qaytaradi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida O'zbekistonda kichik biznesning innovatsion faolligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri Inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltiramiz:

- Yollanma xodimlarning innovatsion g'oya va takliflarni bildirishdagi tashabbuslarini qo'llab quvvatlash;

- Xodimlarning davomiy zamonaviy bilimlarni egallashi va malakalarini oshirishi uchun investitsiyalar kiritish dasturini ishlab chiqish;

- Xodimlarni tor ixtisoslikdagi ishlarga jalb etish, ya'ni xodim o'z faoliyatini yaxshi tushunsa, o'z ishidan ruhiy qoniqish hissini tuyadi. Ruhiy qoniqish hissi esa xodimni tinimsiz o'z ustida ishlashga, yangiliklar, innovatsiyalar yaratishga undaydi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar.***

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan. 23-dekabr 2017-yil.

2.E,Cefis, O.Marsili. The role of innovation in firms' survival.Research policy, 35 (2006), pp.626-641



3. P. Ganotakis. Founders' human capital and the performance of UK new technology based firms. *Small business economics*, 39 (2012), pp. 495-515.
4. N. Hewitt-Dundas. Resource and capability constraints to innovation in small and large plants. *Small business economics*, 26 (2006), pp. 257-258.
5. Drucker P. F. *Post-Capitalist Society*. Oxford Butterworth: Heinemann, 1993. P. 271.
6. Drucker P. F. *The Age of Discontinuity*. N. Y.: Harper and Row, 1978.
7. Лаврентьев В. А., Шарина А. В. Интеллектуальный потенциал предприятия: понятие, структура и направления его развития // *Креативная экономика*. 2009. №2(26)
8. Стюарт Т. Интеллектуальный капитал: новый источник богатства организации / пер. с англ. В. Ноздриной. М., 2007. 368 с.
9. Бухарцева Н.Г. Интеллектуальный потенциал современного человека: структура и пути формирования // *Педагогическое образование в России*. 2014-№11
10. D. Cohen, M. Soto. Growth and human capital: good data, good results. *Journal of economic growth*, 12 (2007), pp. 51-76.
11. E. Santereli, H. T. Tran. The interplay of human and social capital in shaping entrepreneurial performance: the case of Vietnam. *Small business economics*, 40 (2) (2013), pp. 435-458.
12. P. Ganotakis. Founders' human capital and the performance of UK new technology based firms. *Small business economics*, 39 (2012), pp. 495-515.
13. H. Mc. Guirk, D. Jordan. Local labour market diversity and business innovation: evidence from Irish manufacturing business. *European Planning Studies*, 20 (2012), pp. 1945-1960.
14. P. Hofheinz. EU 2020: why skills are key for Europe's future. Policy brief, IV(1) (2009), pp. 1-23.
15. O'zbekiston Respublikasida kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati 2018-2021 yil. Press-relizlar nashri. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi. [https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/1-kb-lotin-21-yil\\_26\\_08\\_22.pdf](https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/1-kb-lotin-21-yil_26_08_22.pdf)
16. Карпенко М. Новая роль высшего образования в эпоху развития инновационной экономики, глобализации и депопуляции // *Знание. Понимание. Умение*, 2007. № 4. – С. 31-39.
17. Abduraxmonov Q. X. Innovatsion iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlashda inson kapitalining ahamiyati. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasining yangi bosqichida inson omili va manfaatlari: Xalqaro amaliyot va O'zbekiston tajribasi. Ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami. 15-19 betlar. 20.09.2020.

## INCREASING THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

**Yuldasheva Dildora Kamiljan kizi –  
Intern-researcher of  
Tashkent State University Of Economics**

**Abstract:** This article talks about increasing the role of neighborhoods in the development of small and private entrepreneurship and the opportunities created for young people engaged in entrepreneurial activities in neighborhoods.

**Key words:** neighborhood, market, entrepreneurial activity, reforms, small business, innovation, credit, resources.

### Introduction

Along with the implementation of fundamental reforms in the economic life of our country, taking into account the unique world experience of Uzbekistan, revolutionary, drastic changes are moving towards the path of innovative market and

digital economy, while strengthening social protection.

In our country, the transition to market relations is being carried out in connection with the development of entrepreneurship, focusing on the formation of a new socially oriented economy.